

OAV TILIDA EKSPRESSIV VOSITALARNING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI (O'ZBEK TILI MISOLIDA)

Nurullayeva Sabinabonu Rabbim qizi,
Osiyo xalqaro universiteti magistranti.

Azamatova Sevinch Shuxrat qizi,
Sharof Rashidov nomidagi SamDU Markaziy Osiyo xalqlari tillari va madaniyati instituti talabasi.

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'zbek tili ommaviy axborot vositalari tilida qo'llanilayotgan ekspressiv vositalarning lingvistik xususiyatlari tahlil qilinadi. Qolaversa, OAV matnlarida uchraydigan emotsional-ekspressiv birliklarning semantik, uslubiy hamda pragmatik jihatlari yoritiladi. Shuningdek, publitsistik matnlarda metafora, epitet, frazeologik birliklar, takror, ta'kid va boshqa ekspressiv vositalarning qo'llanish usullari hamda ularning o'quvchi va tinglovchiga ta'sir etishdagi o'rni o'rganiladi. Tadqiqot davomida zamonaviy o'zbek OAV materiallari asosida ekspressiv vositalarning tilning ta'sirchanligi va obrazlilikini oshirishdagi ahamiyati ochib beriladi.

Kalit so'zlar: OAV, OAV tili, ekspressiv vositalar, publitsistik uslub, lingvistik tahlil, emotsional-ekspressiv birliklar, metafora, epitet, frazeologik birliklar, pragmatika, uslubiyat, obrazlilik.

Аннотация. В данной статье анализируются лингвистические особенности экспрессивных средств, используемых в языке узбекских средств массовой информации. Кроме того, освещаются семантические, стилистические и прагматические аспекты эмоционально-экспрессивных единиц, встречающихся в текстах СМИ. Также рассматриваются способы использования метафоры, эпитета, фразеологических единиц, повторов, средств акцентирования и других экспрессивных средств в публицистических текстах, а также их роль в воздействии на читателя и слушателя. На основе материалов современных узбекских СМИ раскрывается значение экспрессивных средств в повышении выразительности и образности языка.

Ключевые слова: средства массовой информации, язык СМИ, экспрессивные средства, публицистический стиль, лингвистический анализ, эмоционально-экспрессивные единицы, метафора, эпитет, фразеологические единицы, прагматика, стилистика, образность.

Abstract. This article analyzes the linguistic features of expressive means used in the language of Uzbek mass media. In addition, the semantic, stylistic, and pragmatic aspects of emotional-expressive units occurring in media texts are highlighted. The study also examines the methods of using metaphors, epithets, phraseological units, repetitions, emphatic devices, and other expressive means in journalistic texts, as well as their role in influencing readers and listeners. Based on modern Uzbek mass media materials, the research reveals the significance of expressive means in enhancing the expressiveness and imagery of language.

Keywords: mass media, media language, expressive means, journalistic style, linguistic analysis, emotional-expressive units, metaphor, epithet, phraseological units, pragmatics, stylistics, imagery.

Kirish. Bugungi globallashuv va axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi davrida ommaviy axborot vositalari jamiyat hayotining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. OAV nafaqat axborot yetkazish vositasi, balki jamiyat ongiga ta'sir ko'rsatish, jamoatchilik fikrini shakllantirish hamda ma'naviy-ma'rifiy qadriyatlarni targ'ib etishda muhim kommunikativ platforma sifatida xizmat qiladi. Shu sababli OAV tilining lingvistik va uslubiy xususiyatlarini o'rganish zamonaviy tilshunoslikning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Publitsistik uslubning asosiy vazifalaridan biri tinglovchi va o'quvchiga ta'sir etishdan iborat bo'lib, bu jarayonda ekspressiv vositalar muhim ahamiyat kasb etadi.

Xususan, metafora, epitet, frazeologik birliklar, takror, ta'kid, emotsional-ekspressiv birliklar va boshqa uslubiy vositalar matnning obrazlilikini oshirish, fikrning ta'sirchanligini kuchaytirish hamda muallif munosabatini ifodalashga xizmat qiladi. OAV matnlarida bunday vositalarning faol qo'llanishi tilning kommunikativ imkoniyatlarini kengaytiradi va auditoriyaga kuchli pragmatik ta'sir ko'rsatadi.

O'zbek tilshunosligida publitsistik uslub va ekspressiv vositalar masalasi ayrim tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan bo'lsa-da, zamonaviy OAV tilida qo'llanilayotgan ekspressiv birliklarning lingvistik xususiyatlarini tizimli ravishda tadqiq etish dolzarb ilmiy muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Ayniqsa, internet nashrlari, televideniya va ijtimoiy tarmoqlar tilida ekspressiv vositalarning qo'llanish ko'lami yanada kengayib borayotgani mazkur mavzuning ilmiy ahamiyatini oshiradi.

Adabiyotlar tahlili. Tilshunoslikda ekspressiv vositalar va publitsistik uslub masalasi uzoq yillardan buyon tadqiqotchilar e'tiborida bo'lib kelmoqda. Xususan, funksional uslubiyat, matn lingvistikasi hamda pragmalingsvistika yo'nalishlarida olib borilgan ilmiy izlanishlarda ekspressiv birliklarning nutq ta'sirchanligini oshirishdagi o'rni alohida ta'kidlanadi. Ekspressiv vositalar tilning obrazlilik, emotsionallik va baholash xususiyatlarini yuzaga chiqaruvchi muhim lingvistik birlik sifatida talqin etiladi. O'zbek tilshunosligida publitsistik uslub va OAV tili bo'yicha qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Jumladan, publitsistik matnlarning uslubiy xususiyatlari, gazeta va jurnal tilining leksik-semantik jihatlari, ommaviy kommunikatsiyada til birliklarining funksional imkoniyatlari bir qator olimlar tomonidan o'rganilgan. Ushbu tadqiqotlarda OAV tilining ixchamlik, aniqlik, ta'sirchanlik va obrazlilik kabi xususiyatlari ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Shuningdek, ekspressiv vositalarning lingvistik tabiati rus va jahon tilshunosligida ham keng tadqiq etilgan. V.V. Vinogradov, I.R. Galperin, A.N. Gvozdev kabi olimlar tomonidan uslubiyat va ekspressivlik masalalari nazariy jihatdan yoritilib, til birliklarining emotsional-ekspressiv imkoniyatlari tahlil qilingan. Mazkur tadqiqotlarda metafora, epitet, frazeologik birliklar, sintaktik takrorlar va boshqa stilistik vositalarning nutqdagi funksional ahamiyati ko'rsatib berilgan. So'nggi yillarda internet jurnalistikasi va raqamli media rivojlanishi natijasida OAV tilida ekspressiv vositalarning qo'llanish ko'lami yanada kengaydi. Ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlar, internet nashrlari va televideniya matnlarida auditoriya e'tiborini jalb qilish maqsadida emotsional-ekspressiv birliklardan faol foydalanilmoqda. Biroq zamonaviy o'zbek OAV tilida ekspressiv vositalarning lingvistik va pragmatik xususiyatlarini kompleks tarzda o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlar yetarli darajada emas. Shu nuqtayi nazardan, mazkur maqolada o'zbek OAV tilida qo'llanilayotgan ekspressiv vositalarning semantik, uslubiy va pragmatik jihatlari tahlil qilish hamda ularning publitsistik matndagi funksional ahamiyatini aniqlashga alohida e'tibor qaratiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur maqolaning maqsadi o‘zbek OAV tilida qo‘llanilayotgan ekspressiv vositalarning lingvistik xususiyatlarini tahlil qilish, ularning semantik-uslubiy hamda pragmatik imkoniyatlarini yoritishdan iborat. Tadqiqot davomida zamonaviy publitsistik matnlar asosida ekspressiv vositalarning qo‘llanish usullari va ularning nutq ta’sirchanligini oshirishdagi o‘rni tahlil qilinadi.

Tahlillar va natijalar. Tadqiqot jarayonida zamonaviy o‘zbek ommaviy axborot vositalari materiallari, jumladan, gazeta-jurnal matnlari, internet nashrlari hamda televideniya publitsistik chiqishlari tahlil qilindi. Tahlillar natijasida OAV tilida ekspressiv vositalarning keng va faol qo‘llanilishi kuzatildi. Ayniqsa, auditoriya e’tiborini jalb qilish, axborotning ta’sirchanligini oshirish hamda muallifning subyektiv munosabatini ifodalashda ekspressiv birliklarning muhim o‘rin tutishi aniqlandi. Tahlil davomida publitsistik matnlarda metaforaning eng faol ekspressiv vositalardan biri ekanligi kuzatildi. Metaforalar orqali ijtimoiy-siyosiy voqealar obrazli tarzda ifodalanib, matnning emotsional ta’sir kuchi oshiriladi. Masalan, “iqtisodiyot lokomotivi”, “axborot maydoni”, “taraqqiyot yo‘li” kabi birikmalar publitsistik matnlarda ko‘chma ma’noda qo‘llanilib, o‘quvchi tafakkuriga kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Bu kabi birliklar nafaqat axborot yetkazadi, balki voqelikka nisbatan muayyan baholovchi munosabatni ham shakllantiradi.

Shuningdek, epitetlarning qo‘llanishi ham OAV tilining obrazlilikini kuchaytiruvchi asosiy vositalardan biri sifatida namoyon bo‘ldi. Tahlil qilingan materiallarda “buyuk kelajak”, “ulkan islohotlar”, “dolzarb masala”, “keskin muammo” kabi sifatlovchi birliklar keng qo‘llanib, axborotning emotsional-ekspressiv xususiyatini oshirishga xizmat qilgani aniqlandi. Epitetlar orqali muallifning voqea-hodisalarga munosabati ochiq ifodalanadi va auditoriyada muayyan psixologik ta’sir hosil qilinadi. Frazologik birliklarning qo‘llanishi ham OAV tilida ekspressivlikni ta’minlovchi muhim omillardan biri ekanligi kuzatildi. Xususan, “ko‘z yumib bo‘lmaydi”, “xalq dardi bilan yashamoq”, “yelkama-yelka turmoq” kabi iboralar matnning tabiiyligi va ta’sirchanligini oshirish bilan birga, milliy mentalitet va madaniy tafakkur elementlarini ham aks ettiradi. Bu esa publitsistik matnlarning o‘quvchi uchun yanada tushunarli va yaqin bo‘lishini ta’minlaydi.

Sintaktik ekspressiv vositalar, jumladan, takror, ritorik so‘roq va ta’kid konstruksiyalarining ham OAV matnlarida faol qo‘llanilishi kuzatildi. Ayniqsa, sarlavha va publitsistik chiqishlarda takroriy birliklardan foydalanish axborotning esda qolish darajasini oshiradi hamda matnning kommunikativ samaradorligini kuchaytiradi. Ritorik so‘roqlar esa o‘quvchini mushohada yuritishga undab, muallif va auditoriya o‘rtasida bevosita muloqot muhitini yuzaga keltiradi.

Tadqiqot doirasida o‘zbek ommaviy axborot vositalarining turli janrlariga mansub matnlar (yangilik xabarlar, tahliliy maqolalar, intervyu va reportajlar) lingvistik jihatdan kompleks tahlil qilindi. Tahlil jarayonida ekspressiv vositalarning qo‘llanishi nafaqat leksik birliklar darajasida, balki sintaktik va matniy darajada ham namoyon bo‘lishi aniqlandi. Bu esa OAV tilining ko‘p qatlamli va funksional jihatdan murakkab tizim

ekanligini ko'rsatadi. Kuzatishlar shuni ko'rsatdiki, zamonaviy publitsistik matnlarda ekspressivlik ko'pincha implitsit (yashirin) va eksplitsit (ochiq) shakllarda ifodalanadi. Eksplitsit ekspressivlikda muallif bahosi bevosita leksik birliklar orqali ifodalansa, implitsit shaklda esa kontekst, metaforik qurilmalar va sintaktik strukturalar orqali yuzaga chiqadi. Ayniqsa, kontekstual ekspressivlik OAV matnlarining pragmatik ta'sirini kuchaytirishda muhim omil sifatida namoyon bo'ladi. Tahlil qilingan materiallarda baholovchi leksika (masalan, "muvaffaqiyatli", "samarali", "dolzarb", "murakkab")ning faol qo'llanishi kuzatildi. Bunday birliklar axborotning neytral mazmuniga qo'shimcha emotsional va pragmatik qatlam yuklaydi. Natijada, matn faqat axborot uzatish vazifasini emas, balki o'quvchida muayyan munosabat shakllantirish vazifasini ham bajaradi. Shuningdek, sintaktik ekspressivlikning muhim ko'rinishlaridan biri sifatida inversiya va ellipsis hodisalari OAV matnlarida faol qo'llanilishi aniqlandi. Inversiya orqali gapdagi mantiqiy urg'u kuchaytirilsa, ellipsis orqali matn ixchamligi va dinamikligi ta'minlanadi. Bu holat, ayniqsa, sarlavhalar va qisqa yangilik xabarlarida yaqqol ko'zga tashlanadi. Matnlarning pragmatik tahlili shuni ko'rsatdiki, OAV tilida ekspressiv vositalar auditoriya bilan emotsional bog'lanishni mustahkamlashga xizmat qiladi. Jumladan, adresant va adresat o'rtasidagi kommunikativ masofa kamayadi, bu esa axborotning ta'sir kuchini oshiradi. Shuningdek, media matnlarda intertekstual elementlarning qo'llanishi ham ekspressivlikni kuchaytiruvchi omil sifatida kuzatildi. Boshqa matnlarga yoki madaniy kodlarga ishora qilish orqali matnning semantik chuqurligi ortadi hamda uning interpretatsion imkoniyatlari kengayadi. Olingan natijalar shuni tasdiqlaydiki, zamonaviy o'zbek OAV tilida ekspressiv vositalar tizimli va funksional jihatdan faol qo'llaniladi. Ular nafaqat estetik, balki kommunikativ va pragmatik maqsadlarni amalga oshiruvchi muhim lingvistik mexanizm sifatida xizmat qiladi.

Xulosa. Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, ekspressiv vositalar zamonaviy o'zbek ommaviy axborot vositalari tilining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. OAV matnlarida metafora, epitet, frazeologik birliklar, takror, ritorik so'roq va boshqa emotsional-ekspressiv vositalarning faol qo'llanishi publitsistik uslubning ta'sirchanlik va obrazlilik xususiyatlarini kuchaytirishga xizmat qiladi. Ushbu vositalar orqali muallifning voqea-hodisalarga bo'lgan munosabati ifodalanib, auditoriyaga kuchli pragmatik ta'sir ko'rsatiladi. Tahlillar davomida ekspressiv birliklarning nafaqat uslubiy bezak vazifasini bajarishi, balki axborotning mazmunini ta'sirchan yetkazish, jamoatchilik fikrini shakllantirish hamda o'quvchi va tinglovchi e'tiborini jalb qilishda muhim kommunikativ vosita ekanligi aniqlandi. Ayniqsa, internet jurnalistikasi va zamonaviy media makonida ekspressiv vositalarning qo'llanish ko'lami kengayib borayotgani kuzatildi. alohida o'rin tutishini ko'rsatadi. Xulosa qilib aytganda, ekspressiv Shuningdek, OAV tilida ekspressiv vositalardan unumli foydalanish publitsistik matnlarning emotsional bo'yoqdorligini oshirish bilan birga, milliy tilning boy imkoniyatlarini namoyon etishga ham xizmat qiladi. Bu esa o'zbek tilining funksional-uslubiy taraqqiyotida OAVning vositalar OAV tilining

lingvistik va pragmatik samaradorligini ta'minlovchi asosiy omillardan biri bo'lib, ularni ilmiy jihatdan chuqur o'rganish zamonaviy tilshunoslikning dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Kelgusida internet nashrlari va ijtimoiy tarmoqlar tilida ekspressiv birliklarning qo'llanish xususiyatlarini yanada kengroq tadqiq etish muhim ilmiy natijalarga olib kelishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Begmatov E. *Hozirgi o'zbek adabiy tilining leksik qatlamlari*. – Toshkent: Fan, 1985. – 190 b.
2. Karimov S. *O'zbek tilining badiiy-uslubiy xususiyatlari*. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – 224 b.
3. Nurmonov A. *Lingvistik tadqiqot metodologiyasi*. – Toshkent: Akadernashr, 2010. – 176 b.
4. Qo'ng'urov R. *O'zbek tilining tasviriy vositalari*. – Toshkent: Fan, 1977.–214 b.
5. Yo'ldoshev B. *Matn lingvistikasi asoslari*. – Toshkent: Fan, 2007. – 240 b.
6. Shomaqsudov A., Rasulov I., Qo'ng'urov R., Rustamov H. *O'zbek tili stilistikasi*. – Toshkent: O'qituvchi, 1983. – 256 b.

